

**“MEHRIBON USTOZ, MEHRIBON SUHBATDOSH DILBAR SHOIR”
HAQIDAGI XOTIRALAR**

Norqulova Rayhon

Toshkent shahar Chilonzor tumani 202-maktab o'zbek tili va adabiyoti fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Said Ahmaddek so'zi qaynoq, qalami o'tkir ijodkorning “Yo'qotganlarim va topganlarim” esselarida o'zbek adiblari o'zgacha bir mahorat bilan xotirlangandir. Ushbu maqolada o'zbek adabiyotidagi so'nmas bir ijodkor Maqsud Shayxzoda haqida Said Ahmadning yod etganlari haqida qisqacha to'xtalib o'tiladi.

Kalit so'zlar: Oybek, Navoiy, Toshkentnoma, sehrli so'zlar, qalami o'tkir ijodkor.

Annotation: Uzbek writers are commemorated with a special skill in the essays "Lost and Found" by Said Ahmed, a writer with a sharp word and a sharp pen. In this article, it will be briefly discussed about the memories of Said Ahmed about Maqsud Sheikhzade, an inexhaustible creator of Uzbek literature.

Key words: Oybek, Navoi, Tashkent name, magic words, a creator with a sharp pen.

Аннотация: Особое мастерство узбекских писателей отмечено в очерках «Потерянные и найденные» Саида Ахмеда, писателя острого слова и острого пера. В данной статье кратко пойдет речь о воспоминаниях Саида Ахмеда о Максуде Шейхзаде, неиссякаемом творце узбекской литературы.

Ключевые слова: Ойбек, Навои, имя Ташкента, волшебные слова, творец с острым пером.

Kirish. “Dilbar shoir edi u”. Ha aynan shunday nom bilan boshlanuvchi bu yodnoma dunyoda inson bo'lib yashash odobini, inson va tabiat, inson va go'zallik falsafasini kuylovchi yozgan she'rlarida mana shu xislatlar doimo ufurib turar edi. U yozgan she'rlarini boshqa ijodkorlar ijoddan ajratib olish juda ham oson edi. Uning maqolalari xuddi she'r kabi muloyim, ohangdor bo'lib o'qiladi. Uning she'rlarida chuqur fikr, falsafa, ichki ohang she'riy rang doim jilolanib turgan. U ijodkor Said Ahmad ta'riflaganidek, “U olim shoir edi.U shoir olim edi”. Ijodkorning essechilikdagi izlanishlarida shoir Maqsud Shayxzoda haqidagi esse ham alohida o'ringa ega. Said Ahmadning Maqsud Shayxzoda haqida yozgan xotiralarida ta'kidlashicha uni, ko'pchilik, hamma yaxshi ko'rardi. Uning yozgan dil tortar she'rlari uchun, unga o'xshay olmagan uchun unga ko'p azob berardi. Maqsud Shayxzodaning o'ziga tortadigan nimasidir bor edi. U bilan bir marta gaplashgan odam unga bog'lanib qolardi. Muxlislari, shogirdlari ko'pligining asosiy sababi ularni o'ziga juda yaqin olardi. Mehribon suhbatdosh hammaning tashvishu alamlarini o'zinikidek qabul qiladigan takrorlanmas bir oddiygina inson edi. Maqsud Shayxzoda juda ham yaxshi; to'g'ri inson bo'lgan. Uning shu to'g'riligidan juda ko'p marotaba ko'plab kishilar foydalanishgan. M.Shayxzoda buni bilib tursada indamagan. U yomonlikka ham faqat yaxshilik bilan javob qaytara oladigan Oybek kabi insoniy fazilatlarini yuqori bo'lgan ijodkor bo'lgan. Oybekdek oliyjanob insonning hurmatiga sazovor bu ijodkor o'zbek adabiyotida o'z o'rniga egadir [1]. Uning shogirdlari shu qadar ko'p ediki, ustoz ijodkorning yorqin siymosi u o'qitgan talabalar ko'z o'ngida bir umrga muhrlanib qolgan. U qiynalgan talabalarga o'zlariga sezdirmasdan yordam qila oladigan saxiy inson bo'lgan. “Domla juda ko'p chekardi. Tutunni

tutunga ulab chekardi. Oliygozda faqat u kishiga rektor ma'ruza paytida chekishga ruxsat bergandi. Domla moddiy jihatdan qiynalib yurgan talabalarni kuzatib yurardi. Shulardan biriga 30so'm berib (u paytlar o'ttiz so'mlik pul bo'lardi) bitta quti "Kazbek" papirosi olib kelishni buyurardi. Talaba papiros bilan qaytimini ("Kazbek" ikki so'm edi) olib kelganda u faqat papirosni olib qaytimini " o'zingizda turatursin" deb olmasdi. Ertasiga papiros olib kelishni boshqa talabadan so'rardi. Va undan ham qaytimini olmasdi. U har kuni bir qiynalgan talabaga 28 so'm yordam puli berganini talabaning o'zi ham sezmay qolardi. Maqsud Shayxzoda shunday bir irodasi mustahkam inson edi. U hech kimga ozor bermasdi dilini og'ritmas edi, aksincha, uni yomonlar dilini og'ritar edi. Shayxzodada shunday bir olloh tomonidan berilgan yuqori fazilatlarga ega bo'lgan ajoyib dilbar shaxs edi. Adabiyotimizda uchraydigan ayrim o'xshashliklar bor. Masalan turkiy adabiyotning asoschisi Navoiy. Bizga ma'lumki, o'zbek adabiyotining serqirra ijodkori Oybek bu buyuk insonni o'ziga ustoz deb bilgan. Uning yorqin siymosini yaratish uchun yillar davomida ijod qilgan. Undagi buyuk insoniy fazilatlarni o'zida mujassam aylagan. Navoiy hayoti va ijodini sidqidildan o'rganuvchi ijodkor bo'lgan. Asarlarida Navoiy ijodining ayrim uslublarini nafaqat ijodi, balki shaxsiy hayotida ham Navoiy fazilatlarini o'z fazilatlarida jo qilgan adibdir. Oybek esa Shayxzoda bilan ham hamfikir bo'lgan, uning maslahatlarini olib turgan juda ham hurmat qiladigan yaqin kishisi bo'lgan.

Ularining ham hayot tarzida ham ijodiy faoliyatida ham xarakter xususiyatlarida ham o'xshashliklarni kuzatishimiz mumkin. Qanchadan- qancha qiyinchiliklarni ko'rgan bu ikki inson o'zbek kitobxonlari qalbida bir umrga muhrlanib qoladigan ijod namunalarini qoldirgan. Said Ahmad Maqsud Shayxzoda haqidagi maqolasini shunchalar sof va samimiy yozganki, qahramonning ichki dunyosini ham yoritib bera olgan. Maqsud Shayxzoda G'afur G'ulomning qadrdon do'sti bo'lgan. Ular hayotda ham, ijodda ham doimo hamfikir bo'lishgan. Urush davrida Maqsud Shayxzoda juda ham faol ijod qilganligini Said Ahmd o'z yodnomalarida aytib o'tgan. Uning "Jaloliddin" she'riy dramasi juda ham katta muvaffaqiyat qozonadi. Uning ijodi gullab yashnashida " Kurash nechun" nomli she'ri va yana bir qator she'rlarining o'zni beqiyosdir. O'sha yillarda Shayxzoda Oybek, G',G'ulomlar qatorida qadrlanar edi. Uning obro' topayotganidan kuyib ketgan raqiblari unga tuhmat toshlarini ota boshlashdi. Mayakovskiyning " Lelin" she'ri tarjimasidan unga ayb qo'ya boshladilar. Shayxzoda ular bilan kurashishni ham xohlamadi. Shundan so'ng unga ko'p balolar yog'ilib kela boshladi.Kommunistik partiyani tan olmadi deb ayb qo'yidilar. Bundan tashqari" Jaloliddin" pyesasidan ham siyosiy xato topdilar. Bu asar xalqlar do'stligiga rahna soladigan asar deb, sahnadan olib tashladilar. Shunday xo'rliklar tahqirlanishlar yetmagandek endi, ozodlik ham ijodkor uchun ko'plik qilib qolgandi. Shayxzoda besh yil azob uqubatlar bilan yashadi. Nohaq ayb, nohaq tutqinlik. Ijod ahlining irodasi shu qadar mustahkam bo'lar ekan. Besh yillik tutqinlikdan so'ng. Shayxzoda yana ijodga qaytdi. Ammo unga otilayotgan tuhmat toshlari hali ham nihoyalanmagan edi. Uyi tortib olingan, Shayxzoda yana o'sha o'ziga xos quvnoqlik bilan ijod qila boshladi. Hech kimga tana qilmadi. O'zining ajoyib "Toshkentnoma " nomli doston qasidasi uchun taqdirlanishga umid bog'lagan Shayxzoda umidlari armonga aylandi.

Umri davomida biror marta orden bilan mukofotlanmadi. Shayxzoda juda ko'p aziyatlar chekdi. Yaqin do'sti hamsuhbati G',G'ulom olamdan o'tganda Shayxzoda dam olishda bo'lganlar. Uning oxirgi ijod mahsuli do'sti G',G'ulomga bag'ishlangan. Avvaliga do'stining vafotini undan yashirishadi. Keyinchalik og'ir yo'qitishdan xabar toggan ijodkor. Do'stiga atab "G'afurga xat" degan ajoyib she'r yozadi. Bu she'r uning oxirgi she'ri edi.

Oltmish yillik umrning hayajonlarin,

To'polonlar, hujumlar, qahqahalarin,
Ko'priklarni, bog'larni, chorrahalarini,
G'azablarni, mehrni so'z marjonlarin-
Bir lahzada tark etib ko'chdingmi, do'stim?
Shahringning ro'yxatidan o'chdingmi, do'stim?
Abdulg'afur, mavlono, shoshdim zovtalab:
Xabarlarini yanglishgan yo'qsa quloqlar!..
G'afur G'ulom va o'lim-qovushmagan gap,
Misoli qish va rayhon, dasht va buloqlar.
G'afur G'ulom va sukut –ikki yov lashkar,
Nuqul urushayotgan dushman taraflar.

Aynan mana shu ma'sum satrlar G'afur G'ulomga atalgan do'stona oxirgi ijod mahsuli edi. O'zbek adabiyotida yana katta bir ikki yo'qotish. U ham do'sti ortidan bu dunyo tashvishlaridan qutulib, olamni tark etadi. Mana shu satrlar ustozlarni yo'qotish ular haqida eslab xotira yozish mashaqqatini o'z yelkasiga olib, ijod etgan adib Said Ahmaddir [2]. Qanchadan-qancha yo'qotishlar, ayriliqlar, nohaq qurbonlar ularga o'zi aynan guvoh bo'lib, uni yana qalamga olish ma'suliyati, mashaqqatini tuygan ijodkor Said Ahmaddir. O'lding aziz bo'lding. Darhaqiqat xalqimiz orasida aytiladigan ushbu gaplar bekorga aytilmagan. Xuddi shunday ehtiromga Maqsud Shayxzoda ega bo'ldi. Unga janoza kunida yozuvchilar qo'mitasidan o'nta baxmal yostiqlar keltirishadi, ordenlarni qadash uchun. Ammo ular qaytarilib yuboriladi. Chunki, ularni qadashga adibimizning ordeni yo'q edi. Mana ijod, unga ko'rsatilgan hurmat va ehtirom. Unga azob bergan raqiblari, janozaga kira olmadi. Bu ularga yetarli, vijdon azobli umrboqiy jazo edi. Biz bu buyuk ijodkor haqida xotiralarida abadiy muhrlanib qolgan, u haqida g'am bilan alam bilan yozganlarini o'qib o'rgandik. Said Ahmadning Maqsud Shayxzoda qalami kabi sokin, sehrli so'zlar bilan yozilgan xotiralaridan aynan uning shuncha fazilat egasi bo'lgan ijodkor ekanligini bilib olamiz.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Qur'onov D. Adabiyot nazariyasi asoslari-Toshkent. Akadem nashr 2019
2. Said Ahmad Yo'qotganlarim va topganlarim sano standart nashr 2019
3. Umirov H. Adabiyot nazariyasi-Toshkent: Sharq, 2002
4. G'afurov. ITuganmas umr yo'llari. Prozaning shoiri.-Toshkent adabiyot va san'at nashriyoti, 1981
5. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari.-Toshkent:-2005